



YASHIL BANK XIZMATLARINI VA UNI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

M.Q.Maxmudova

Bank ishi kafedrası dotsenti, DSc.

m.mahmudova0112@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0002-5777-6606>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17247698>

Annotatsiya

Barqaror iqtisodiy rivojlanish va bank sektori o'zaro integratsiyalashuvi sohaga yangi tendensiyani olib kiradi, ya'ni yashil bank xizmat va mahsulotlarini. Bank tizimida nafaqat atrof-muhitni asrab qoluvchi harakatlarni amalga oshirish, balki zamonaviylikka qarab intilish ham aynan yashil bankka murojaat qilish orqali amalga oshirilayotganini inobatga olgan holda, yashil bank xizmatlarini o'rganish va uni O'zbekiston banklariga tatbiq etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ushbu tadqiqot ishimizda yashil bank xizmatlarini va uni O'zbekistonda rivojlantirishning ahamiyati bo'yicha izlanishlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, yashil bank, xizmat va mahsulotlar, ESG, barqarorlik, O'zbekiston.

Moliyalashtirish tushunchasini qamrab oluvchi ko'plab manbalar mavjuddir va bank sohasi ulardan biridir. Yashil bank ishi esa bank sektorining yangi yo'nalishi bo'lib, u kelajak avlodlar uchun yashashga qulay sharoitni saqlab qolish maqsadida jahon yetakchilari tomonidan boshlangan yashil harakat mahsulidir¹. Davlat yetakchilarining 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishish bo'yicha bergan so'nggi ma'lumotlari yashil bank faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda muhim ahamiyatlidir. Bu barqaror iqtisodiyot hamda an'anaviy banklarning o'zaro integratsiyalashuvida atrof-muhitni muhofaza qilishga e'tibor qaratgan holda moliyalashtirishning yangi yo'nalishi hisoblanadi.

Yashil bank ishi ekologik toza moliyalashtirish shakli bo'lib, banklarning bizneslar jarayonlarni moliyalashtirishida atrof-muhit farovonligini hisobga olishidir. Iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan biznesda barqaror ijobiy natijaga erishish uchun yashil bank faoliyati muhimdir, shu sababli yashil bank xizmatlari orqali biznesni muvaffaqiyatli yo'lga qo'yishning ro'li beqiyosdir.

¹ Brundtland Commission. The World Commission on Environment and Development. Oxford: Brundtland Commission; 1987

Yashil bank tomonidan taqdim etilayotgan mahsulot va xizmatlar quyidagilar:

Yashil omonatlar (Green Deposits): mijozlar bank xizmatlaridan onlayn tarzda foydalanish orqali, banklar depozit hisobvaraqlari uchun yuqoriroq foiz stavkasini taklif qiladi.

Oddiy muddatli omonatlar (ya'ni, belgilangan vaqtga qo'yiladigan omonatlar) va yashil omonatlar bir xil shaklda ishlaydi – ikkalasida ham mijoz pulni ma'lum muddatga bankka qo'yadi. Biroq, ularning asosiy farqi – bank bu pulni qanday maqsadda ishlatishida. Odatda, banklar oddiy omonatlardan tushgan mablag'ni yirik korxonalar, kichik va o'rta bizneslar yoki jismoniy shaxslarga turli xil kreditlar (biznes krediti, avtokredit, ipoteka, iste'mol kreditlar) ko'rinishida tarqatadi. Bu kreditlar ekologik jihatdan foydali bo'lishi shart emas — pul qayerga ishlatilishi bo'yicha alohida talablar mavjud emas. Aksincha, yashil omonatlar faqat atrof-muhitga foydali bo'lgan loyihalar yoki bizneslar uchun ishlatiladi. Har bir bank o'zining yashil omonat dasturi doirasida pul ajratiladigan loyihalarni tanlab oladi. Yashil omonatlar banklarni barqaror va ekologik toza loyihalarni qo'llab-quvvatlashga undaydi va ularni mas'uliyatli kredit siyosatiga yo'naltiradi.

Yashil ipoteka kreditlari (Green Mortgages): energiya tejamkor uylar uchun qulay foiz stavkalari yoki manfaatli shartlar bilan yashil ipoteka kreditlarini taklif qiladi. Bunday ipoteka energiya tejamkor uylarga ega bo'lgan yoki ularni ekologik texnologiyalar orqali yaxshilayotgan uy egalari uchun qulay shartlar taklif qiladi.

Masalan, quyidagi o'zgarishlar yashil ipotekaga mos keladi:

- Quyosh panellarini o'rnatish (masalan, Buyuk Britaniyada eng samarali),
- Uyga issiqlikni saqlovchi izolyatsiya qilish,
- Issiqlik nasoslari (heat pumps) o'rnatish va boshqa yashil texnologiyalarni qo'llash.

Yashil ipoteka orqali banklar:

- pastroq foiz stavkalari,
- yoki naqd pulda qaytarib beriladigan imtiyozlar (keshbeklar) beradi.

Natijada, uy egalari atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytiradi va uzoq muddatda energiya xarajatlarini ham qisqartiradi.

Yashil kredit (Green Loan): atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan va ekologik jihatdan barqaror deb hisoblangan loyihalar yoki bizneslar uchun kreditlar ajratiladi. Yashil va an'anaviy kreditlar o'rtasida farqlar mavjud va taqqoslanishi quyidagicha:

1-jadval.

Yashil va an'anaviy kreditlarning taqqoslanishi²

Parameter	Yashil kreditlar	An'anaviy kreditlar
Kredit mablag'laridan foydalanish	Mablag'lar faqat yashil loyihalar (qayta tiklanuvchi energiya, yashil binolar, toza transport, ifloslanishni oldini olish va h.k.) uchun ishlatilishi mumkin.	Mablag'lardan istalgan qonuniy maqsadlarda foydalanish mumkin, hech qanday cheklov yo'q.
Moslik (talablar)	Ariza beruvchi va loyiha qat'iy ekologik mezonlarga mos bo'lishi kerak. Tan olingan Yashil Kredit Tamoyillariga muvofiqlik talab qilinadi.	Faqat bankning odatiy kredit siyosatlariga muvofiqlik talab etiladi. Ekologik mezonlar e'tiborga olinmaydi.
Foiz stavkasi	Ko'pincha an'anaviy kreditlarga qaraganda pastroq foiz stavkalari taklif qilinadi, chunki yashil loyihalar kamroq xatarli deb hisoblanadi.	Standart foiz stavkalari ariza beruvchining kredit tarixi va bozor shartlariga qarab belgilanadi.
Soliq va davlat imtiyozlari	Davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar yoki grantlar ajratilishi mumkin.	Odatda hech qanday maxsus imtiyoz yoki subsidiyalar mavjud emas.
Atrof-muhitga ta'siri	Loyihalar orqali iqlim maqsadlariga mos ijobiy ekologik ta'sir	Umumiy biznes faoliyatini moliyalashtirishda

² Muallif tomonidan tayyorlangan

	keltirish tutiladi.	ko'zda inobatga olinmaydi.	atrof-muhit omillari
--	------------------------	-------------------------------	-------------------------

Mobil va onlayn bank xizmatlari (Mobile banking and online banking):

mobil ilovalar va onlayn bank xizmatlari kamroq qog'oz ishlatish, mijozlarning filiallarga borishini kamaytirish orqali atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mobil va onlayn bank xizmatlari ekologiyani asrash bilan birga, banklar uchun ham iqtisodiy jihatdan samarali yechim hisoblanadi.

Ko'plab sohalarda o'z ta'sirini ko'rsatib kelayotgan yashil banklar uchta omilni barqaror rivojlanishini ta'minlaydi: iqtisodiy, atrof-muhit, jamiyat va yashil bank orqali quyidagi yo'nalishlarda tashabbuslarga erishishimiz mumkin:

1.Qog'ozsiz tranzaksiyalar

Bank xizmatlarida raqamli yechimlardan foydalanishni rag'batlantirish orqali qog'oz sarfini kamaytiradi. Masalan, elektron hisobotlar (e-statements), onlayn hisobni boshqarish va raqamli aloqa vositalari.

2.Yashil investitsiya fondlari

Ekologik toza loyihalar va kompaniyalarni qo'llab-quvvatlovchi investitsiya mahsulotlarini taklif qilish. Masalan: qayta tiklanuvchi energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va toza texnologiyalar.

3.Barqaror moliyalashtirish

Energiya tejamkor binolar, ekologik transport yoki boshqa atrof-muhit mezonlariga javob beruvchi biznes va loyihalar uchun kreditlar ajratish.

4.Uglerod izini kompensatsiya qilish dasturlari

Bank faoliyati natijasida yuzaga kelgan karbon izini kamaytirish uchun o'rmon tashkil etish, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash kabi dasturlarni amalga oshirish.

5.Yashil obligatsiyalar (Green Bonds)

Issiqxona gazlari chiqindisini kamaytirish, chiqindilarni boshqarishni yaxshilash kabi atrof-muhitga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus obligatsiyalar chiqarish.

6.Energiya tejamkor bank filiallari

Quyosh panellari, energiya tejovchi yoritgichlar va ekologik toza qurilish materiallaridan foydalanib energiya samarador bank binolari qurish.

7.Ekologik xavf tahlili

Bank tomonidan kredit yoki investitsiya berish asnosida atrof-muhitga bo'lgan xavfni baholash mexanizmini kiritish — moliyalashtiriladigan loyiha ekologik standartlarga mos kelishiga ishonch hosil qilish.

8. Ichki yashil siyosat (Green Banking Policies) Bank ichki siyosatini ekologik tamoyillar asosida shakllantirish: bankning o'z karbon izini kamaytirish, ekologik loyihalarni qo'llab-quvvatlash va xodimlarni yashil tashabbuslarda ishtirok etishga undash.

O'zbekiston bank amaliyotida ham yashil bank xizmatlari so'nggi yillarda keng joriy etib kelinmoqda va bu bir qancha afzalliklarga olib kelmoqda:

1. Ekologik afzalliklar

- Qayta tiklanuvchi energiya (quyosh panellari, shamol turbinalari) uchun ajratilgan kreditlar orqali karbon chiqindilarining kamayishi kuzatilinadi.

- Energiya samarador texnologiyalarni moliyalashtirish hisobiga resurslardan oqilona foydalaniladi.

2. Iqtisodiy afzalliklar

- Yashil loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratilib kelinmoqda.

- Energiya tejamkorlik hisobiga tadbirkorlar va aholining xarajatlari kamaymoqda.

- Banklar uchun xalqaro moliya institutlaridan imtiyozli "yashil mablag'lar" jalb qilish imkoniyati oshmoqda.

3. Ijtimoiy afzalliklar

- Aholining ekologik savodxonlik darajasi oshirish va "yashil turmush tarzi"ni rag'batlantirishga turtki bo'ladi.

- Uy-joy va iste'mol kreditlarida energiya samarador qurilish materiallarini qo'llash orqali sog'lom yashash muhiti yaratilinadi.

4. Bank tizimi uchun afzalliklar

- ESG tamoyillariga moslashish orqali xalqaro reytinglarda ishonchlilikni oshirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

- Yangi mijozlar segmentini jalb qilish va barqarorlikka asoslangan raqobat ustunligini qo'lga kiritadi.

Bu kabi afzalliklar inobatga olgan holda tijorat banklari amaliy natijalarga erishib kelmoqda xususan:

➤ Osiyo Infratuzilma Investitsiya Banki O'zsanoatqurilishbankining energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish uchun obligatsiyalarini sotib olish orqali O'zbekistonda yashil moliya bozorini rivojlantirmoqda³.

³ <https://www.aiib.org/en/projects/details/2023/approved/Uzbekistan-UzPSB-Energy-and-Water-Efficiency-and-Renewables-Bond-Investment>.



➤ Joriy yilning 21-yanvar kuni O'zmilliybank AJ Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) O'zbekistonda "yashil" moliyalashni rivojlantirishdagi yutuq va taraqqiyotga bag'ishlangan tadbirida ishtirok etdi va ushbu nufuzli tadbirida GEFF va TFP dasturlari doirasidagi turli nominatsiyalar bo'yicha O'zbekiston tijorat banklarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. O'zmilliybank YeTTB tomonidan "Yashil" savdoni qo'llab-quvvatlash dasturi: Barqaror rivojlanish sertifikatlash sxemalaridan samarali foydalanish" (Green TFP: Best Use of Sustainability Certification Schemes) nominatsiyasi bo'yicha yuksak mukofotga sazovor bo'lishi⁴ ham bankda amalga oshirilayotgan yashil bank mahsulotlarining yaqqol misolidir.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yashil bank xizmatlari – bu atrof-muhitni muhofaza qilish, energiya samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishga ko'maklashishga qaratilgan moliyaviy amaliyotlardir. Ularning asosiy turlari: yashil kreditlar, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, shuningdek raqamli va qog'ozsiz xizmatlardir. O'zbekistonda yashil bank xizmatlarini rivojlantirish esa ekologik muammolarni yumshatish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish hamda aholining ekologik savodxonligini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Brundtland Commission. The World Commission on Environment and Development. Oxford: Brundtland Commission; 1987
2. <https://www.aiib.org/en/projects/details/2023/approved/Uzbekistan-UzPSB-Energy-and-Water-Efficiency-and-Renewables-Bond-Investment>.
3. <https://nbu.uz/>

⁴ <https://nbu.uz/>